

YURTIMIZDA TA'LIMGA BERILAYOTGAN E'TIBOR.

Abdiraximova Sanobar Utkirovna

*Samarqand viloyati Ishtixon tumani 17 – maktabgacha
ta'lim tashkiloti direktori*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda yangi o'zbekistonda ta'lim berilayotgan e'tibor hamda yangiliklar borasida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Olimpiada, maktab ta'limi, ta'lim sifati, oliy ta'lim, xalq ta'limi, dars, globallashuv.*

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonning barcha sohalarida ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shu qatorda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimida ham bir qator yuksalishlar kuzatilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlarning avvalo maktab ta'limi va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktab ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi. Maktab ta'limini tubdan yaxshilash va ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarga munosib sharoit yaratish borasidagi islohotlar jadal davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'limga alohida to'xtalib ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir deb takidlagani ta'limga davlat tomonidan alohida e'tibor qaralishini ko'ramiz. Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek: “Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, Bilim bor joyda buyuklik bo'ladi”. Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, o'quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerak. 2023 yilga yurtimizda “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”, deb nom berishni taklif qilaman deb ta'kidladi. Prezident parlamentga murojaatnomasida ta'lim masalasiga alohida urg'u qaratdi. Bu albatta o'sib kelayotgan yoshlarda ilmga bo'lgan qiziqishlarga keng yo'l ochildi desak mubolag'a bo'lmaydi. «Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir! Ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal qilishimiz kerak deb ta'kidlab o'tkanlari bejiz emas bu bilan o'zbekistoni kelajagini ta'lim bilan qurishimizga yaqol misol bo'la oladi deb oylaymiz. Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog'lig'i joyida bo'lishi, yaxshi ta'lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo'ldan aslo to'xtamaymiz. Biz Yangi O'zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitusiyada mustahkamlashimiz kerak. Ijtimoiy davlat bu,

eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, demakdir. Shu bois, birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz. "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi". Ma'rifatparvar jadid bobolarimizning bu so'zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak. Shu bois, maktablarda ta'lim sifati hamda jamiyatda o'qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023 yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'ladi.

O'zbekistonda davlatning bu sohadagi siyosati va Ta'limni isloh qilish Konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi yangi tahrirdagi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'z aksini topdi. Ta'limning muhim tarkibiy qismi bo'lgan ilmiy tadqiqot inson dunyoqarashini o'zgartirish, nazariy g'oyalarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, jamiyat taraqqiyotini ilgarilashiga ta'sir qiluvchi omildir. Talabalarning ijodiy kuchlari va qobiliyatlarini yuzaga chiqaruvchi ilmiy faoliyat jarayonini takomillashtirish ularni yetuk mutaxassis sifatida shakllanishiga yordam beradi. Bu esa ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil qilish usullarini tahlil etish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Talabalarning ilmiy tadqiqotini tashkil qilish masalalarini o'rganishda tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi mantiqiy usullardan foydalanilgan. O'zbekistonda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri qabul qilinishi, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mutanosibligini ta'minlash mexanizmlaridan samarali foydalanishga e'tiborni kuchayib borayotganligi, mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi Prezident maktablari, Ijod maktablari, yangi oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib beradi. Bundan tashqari konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi. Ta'lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygohlar va ta'lim tizimining quyi bo'g'inlari o'rtasidagi uzviylikni, uzluksizlik va integratsiyani kuchaytirish bo'yicha pedagogik ta'lim innovatsion klasterini ishlab chiqilishi bugungi kunda o'zining ijobiy natijasini bermoqda. Ilmiy adabiyotlar asosida klaster tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Pedagogik ta'lim klasteri" muayyan

geografik hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida sub'ektlarning, texnologiyalarning va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm [2]. Ta'lim majmuasini tashkil qiluvchi bo'g'inlar o'rtasida mavjud tabiiy aloqani manfaatdorlik va samaradorlik nuqtai nazardan, ma'lum hududning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'minlash tobora zaruratga aylanib bormoqda [3]. Yuqoridagi vazifalar ijrosini ta'milash maqsadida Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti bir qator loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 12 -avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-son qarori ijrosini ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yi 8-sentabrdagi 383-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida joriy 2021-2022- yildan boshlab kimyo va biologiya yo'nalishlarida kadrlar tayyorlayotgan barcha oliy ta'lim muassasalari umumta'lim maktablari bitiruvchi sinflar o'quvchilari o'rtasida ko'p bosqichli (tuman, shahar-viloyat-oliy ta'lim muassasasi) kimyo va biologiya fani bo'yicha olimpiada o'tkazish va 1-, 2-, 3-o'rinlarni egallagan o'quvchilarni oliy ta'lim muassasasining mablag'lari hisobidan imtihonsiz o'qishga qabul qilish belgilangan.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonda nisbatan qisqa muddatlarda dunyoning etakchi davlatlarida ta'lim sohasida erishilgan ilg'or yutuqlar, milliy an'analarni o'z ichiga olgan prinsip jihatdan yangi modeli tashkil qilindi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, oliy ta'lim sohasida davlat siyosatini amalga oshirish uchun bizning fikrimizcha,

birinchidan, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish ta'lim sohasidagi innovatsiyalar va davlatning yoshlar masalasida faol siyosati hamda unga tayangan holda amalga oshirilgan islohotlar sezilarli natijalarni bermoqda;

ikkinchidan, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini yanada rivojlantirish, bunda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlarni xorijiy tajribalar asosida qayta ko'rib chiqish lozim.

Uchinchidan, ayniqsa, ta'lim tizimidagi mavjud imkoniyatlarni saqlab qolgan holda, milliy ta'lim-tarbiya tizimiga asos solinib ta'lim sohasida yangilanish jarayoni boshlab yuborildi. Bu esa mamlakatimizda yuqori malakali milliy kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qilayotganidan dalolat beradi.

To'rtinchidan, O'zbekistonning ta'lim jarayoniga xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari va o'qitishning innovatsion metodlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilgan holda yangidan- yangi darsliklarni yaratish,

xalqaro standartlarga muvofiq ta'lim berish uslubini takomillashtirish, barcha ta'lim oluvchi va beruvchilarni axborot-kommunikatsion texnologiyalardan to'liq foydalanish ta'minotiga, yangi texnologik o'quv shakllari va uslublari hamda boshqa yangiliklarni keng tadbiiq etishdagi tajribasi, mamlakatda sohadagi rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini hisobga oluvchi va ayni vaqtda O'zbekistonning zamonaviy rivojlanishi murakkab davrining o'ziga xos jihatlari, uzoq muddatli talablarga javob beruvchi milliy ta'lim modeli yaratilganligidan dalolat beradi. Bularning barchasi respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni Ta'lim to'g'risida. qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF4947-son farmoni.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida (qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2020 y., 06/20/6097/1431-son).
4. Раматов, Ж.С., Ҳасанов, М.Н., & Жуманиёзова, Н.С. (2022). ТАЛАБАЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ САМАРАЛИ УСУЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10-2), 866-874.
5. Basin YE.Y. Tvorchestvo i empatiY. // M. 1987, 2, S.54-66.
6. Бўрихаджаева, М.С. (2023). МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИДА АВТОМОБИЛ ТРАНСПОРТИ КОРИДОРЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (1-2), 338-345.